Qabul qilindi: 5-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 9-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 14-oktabr 2026-yil

SANOAT KORXONALARIDA IKKILAMCHI RESURSLARDAN FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Asrayeva Munisa Umar qizi

“International School of Finance Technology and Science” instituti “Biznes boshqaruv” kafedrasi stajor o‘qituvchisi

munisaasrayeva98@gmail.com

IMPROVING ECONOMIC MECHANISMS FOR STIMULATING THE USE OF SECONDARY RESOURCES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Asrayeva Munisa Umar kizi

Trainee Teacher, Department of Business Management, International School of Finance Technology and Science Institute

munisaasrayeva98@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ СТИМУЛИРОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Асраева Муниса Умар кизи

Стажёр-преподаватель кафедры «Бизнес-управление» института «International School of Finance Technology and Science»

munisaasrayeva98@gmail.com

Sanoat korxonasi ikkilamchi resursdan foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilganda, odatda, faqat o‘z xarajatlarini taqqoslaydi: ikkilamchi xomashyoni tayyorlash xarajati birlamchi xomashyo narxidan past bo‘lsagina undan foydalanadi. Chiqindilarni joylashtirish natijasida jamiyat ko‘radigan ekologik zarar esa bu hisob-kitobga kirmaydi. A. Pigu bunday holatni tashqi samara (eksternaliya) sifatida tavsiflab, xususiy va ijtimoiy xarajatlar o‘rtasidagi farqni soliq yoki to‘lov orqali tenglashtirish zarurligini asoslagan [1].

Korxona darajasida ikkilamchi resursdan foydalanish shartini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$C_i + Z_q \leq C_b + C_j, \quad (1)$$

bu yerda C_i – ikkilamchi resursni yig‘ish va tayyorlashning birlik xarajati; Z_q qayta ishlash uskunalari bo‘yicha birlik kapital xarajati; C_b – almashtirilgan birlamchi xomashyo narxi; C_j – chiqindi birligini joylashtirish uchun to‘lovlar va xarajatlar. Iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari ana shu tengsizlikning ikki tomoniga ta’sir ko‘rsatadi: soliq imtiyozlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chap tomonni kamaytiradi, ekologik to‘lovlar esa o‘ng tomonni oshiradi.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda muayyan choralar ko‘rilgan. Sanitar tozalash va chiqindilarni qayta ishlash korxonalari uchun foyda solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari 1 foiz etib belgilangan, so‘nggi uch yilda barcha manbalardan sohaga 2 trln so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilgan [2]. Birinchi bosqichda batareya va akkumulyatorlar, avtomobillar, moylash materiallari, qadoqlar, shina va shisha mahsulotlariga ekologik yig‘im joriy etish taklif qilingan [3]. Bu yondashuv ishlab chiqaruvchining kengaytirilgan javobgarligi tamoyiliga yaqin bo‘lib, OECD tavsiyalariga ko‘ra, mahsulot hayotiy siklining oxiridagi chiqindilar uchun moliyaviy javobgarlikni ishlab chiqaruvchiga yuklaydi [4].

Mavjud vositalar asosan qayta ishlovchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, ikkilamchi xomashyoni o‘z ishlab chiqarishida ishlatayotgan sanoat korxonalari esa alohida rag‘batga ega emas. Shu sababli ekologik yig‘im stavkasini mahsulot tarkibidagi ikkilamchi xomashyo ulushiga qarab tabaqalashtirish taklif etiladi:

$$Y_d = Y_b \times (1 - \alpha \times U / U_n), \quad (2)$$

bu yerda Y_d – tabaqalashtirilgan yig‘im stavkasi; Y_b – bazaviy stavka; U – mahsulot tarkibidagi ikkilamchi xomashyo ulushi; U_n – me’yoriy ulush; α – imtiyoz darajasini belgilovchi koeffitsiyent ($0 < \alpha \leq 1$). Me’yoriy ulush sifatida “yashil” taksonomiyada belgilangan 30 foizlik mezondan foydalanish mumkin [5]; $U \geq U_n$ bo‘lganda yig‘im α ga mos ravishda eng kam darajaga tushadi.

Rag‘batlantirish mexanizmi korxona ichidagi boshqaruv bilan to‘ldirilishi lozim. M. Lider va A. Rashid ishlab chiqarish sanoatida aylanma iqtisodiyotni joriy etishda iqtisodiy

rag‘bat, resurslar tanqisligi va ekologik talablarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatgan [6]. I.N. Glazkova neft sanoati korxonasi misolida ikkilamchi xomashyodan kompleks foydalanish korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilashini aniqlagan [7]. Korxonada ikkilamchi resurslarni alohida xarajat obyekti sifatida hisobga olish va ular bo‘yicha ichki baholarni belgilash (1) shartni har bir chiqindi turi uchun muntazam tekshirib borish imkonini beradi.

Xulosa

1. Chiqindilarni joylashtirishning ekologik zarari korxona xarajatlarida aks etmasligi ikkilamchi resurslardan yetarli foydalanilmasligining asosiy iqtisodiy sababidir; uni ekologik to‘lovlar va rag‘batlantirish vositalari orqali bartaraf etish mumkin.

2. Amaldagi soliq imtiyozlari asosan qayta ishlovchi korxonalarga qaratilgan; ikkilamchi xomashyoni o‘z mahsulotida ishlatayotgan sanoat korxonalarini rag‘batlantirish uchun ekologik yig‘imni mahsulot tarkibidagi ikkilamchi xomashyo ulushiga qarab tabaqalashtirish taklif etiladi.

3. Davlat darajasidagi vositalar korxona darajasida ikkilamchi resurslarni alohida hisobga olish va ichki baholash tizimi bilan to‘ldirilgandagina kutilgan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pigou, A. C. (1920). The Economics of Welfare. London: Macmillan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. (2025, 14-avgust). Chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha loyihalar taqdimot qilindi. https://president.uz/oz/lists/view/8383 (murojaat sanasi: 14.10.2026)

3. Spot.uz. (2025, 15-avgust). O‘zbekistonda batareya, avtomobil, moy, qadoqlar, shina va shishalarga ekologik yig‘im joriy etiladi. https://www.spot.uz/oz/2025/08/15/ecological-fee/ (murojaat sanasi: 14.10.2026)

4. OECD. (2016). Extended Producer Responsibility: Updated Guidance for Efficient Waste Management. Paris: OECD Publishing.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 561-son qarori. https://lex.uz/docs/6644013

6. Lieder, M., & Rashid, A. (2016). Towards circular economy implementation: a comprehensive review in context of manufacturing industry. Journal of Cleaner Production, 115, 36–51.

7. Глазкова И.Н. (2012). Вторичное сырье как инструмент ресурсосбережения на предприятиях Республики Татарстан. Актуальные проблемы экономики и права, (1), 115–118.

